Qabul qilindi: 8-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 14-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 17-sentabr 2026-yil

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA O'QIB TUSHUNISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRUVCHI O'QUV TOPSHIRIQLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Raximjonova Mahliyoxon Komiljon qizi-
Namangan davlat pedagogika instituti Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang’ich ta’lim) mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Ushbu tezisda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qib tushunish ko‘nikmasini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi o‘quv topshiriqlarining mazmuni, shakllari, ularni ishlab chiqish mezonlari hamda amaliy qo‘llanilishi yoritilgan. O‘zbekiston maktablaridagi amaliy tajribalar asosida o‘quv topshiriqlarining samaradorligi, ularning o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, tahliliy yondashuv, mantiqiy tafakkur, savol-javob, matnga asoslangan xulosa chiqarish, va so‘z boyligini kengaytirish kabi ko‘nikmalarga ta’siri tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, didaktik topshiriq, metakognitsiya, matn bilan ishlash, tanqidiy fikrlash, metodik yondashuv, kompetensiya, kuzatuvchanlik, dars dizayni, refleksiya.

Kirish

Dunyo tajribasida e’tirof etilayotgan til o‘rganishga doir yozish, o‘qish, gapirish ko‘nikmalari qatorida o‘qib tushunish ko‘nikmalari o‘quvchining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish va baholash imkonini berayotgani ko‘pchilik davlatlarda tan olingan. Jumladan, mamlakatimizda ham chet tili o‘qitishda so‘z samarasini bermoqda. O‘zbek tilini ikkinchi va davlat tili sifatida o‘qitishda bu xorijiy tajribadan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanish mumkin. O‘zbekistonda yashovchi boshqa millat vakillarining o‘zbek tilini bilish darajasi o‘qib tushunish, o‘qish, yozish va gapirishga qo‘yilgan minimal talablarga javob berishi, o‘zbek tili fani o‘z oldiga qo‘ygan ijtimoiy buyurtmani bajarishi, o‘zbek tili o‘qitish

metodikasini takomillashtirish va davlat tilining respublikamiz, shuningdek dunyo miqyosidagi nufuzini oshirish bo‘yicha bir qator vazifalarni belgilab berdi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qib tushunish ko‘nikmalarini shakllantirish ta’lim jarayonining muhim yo‘nalishlaridan biridir. O‘qib tushunish ko‘nikmalari o‘quvchilarning matn mazmunini idrok etish, uni tahlil qilish va undan xulosa chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu ko‘nikmalar nafaqat boshlang‘ich ta’limda, balki o‘quvchilarning keyingi ta’lim bosqichlarida va umumiy intellektual rivojlanishida ham asosiy rol o‘ynaydi. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, o‘qib tushunish ko‘nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganligi o‘quvchilarning o‘quv faoliyatida muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi mumkin.

Asosiy qism

Zamonaviy jamiyat hayotida o‘qib tushunish bilish va muloqot vositasi sifatida katta ahamiyatga ega. Shuningdek, eshitish kanallariga qaraganda ko‘rish kanallarining o‘tkazish layoqati birmuncha yuqori. Shu bois bosma matn ko‘rinishida tavsiya qilingan axborot eshitilgan axborotdan ko‘ra ishonchli va samarali tarzda qabul qilinadi hamda unga kam xarajat va kuch sarflanadi. Bu o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitish jarayonida o‘qishga o‘rgatish vazifasining muhimligini ko‘rsatadi. Boshqa jihatdan qaraganda, tabiiy muloqot sharoitida nutqiy faoliyatning barcha turlari uzviy bog‘liqligi hamda o‘qish ko‘nikmalarining yaxshi rivojlanganligi ushbu faoliyatning boshqa turlariga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘qib tushunish – bu matnning grafika yordamida ifodalangan mazmunini muloqot vazifasiga qarab qabul qilish va qayta ishlab, mazmunan anglashga doir nutqiy faoliyat turi. Real hayotda biz turli tarzda o‘qiymiz, o‘qish xususiyati bizning har bir alohida vaziyatda o‘qishdan ko‘zlaydigan maqsadimizga bog‘liq. Bu o‘qib tushunishning quyidagi turlarini belgilaydi:

analitik (tahliliy) o‘qish;

o‘rganish uchun o‘qish;

yuzaki o‘qish;

izlanuvchi o‘qish;

tanishish uchun o‘qish va h.k.

Matnni o‘qib tushunish jarayoni, o‘z navbatida, quyidagi jarayonlardan tashkil topadi: - pedagogik jarayon – biror shaxs tomonidan o‘rgatish, ko‘rsatishni taqozo qiladi; - psixologik jarayon – diqqatni jamlagan holda o‘qilayotgan narsaga qarash, tikilishni talab qiladi, - jismoniy jarayon – boshqa harakatlarni to‘xtatgan holda ko‘zni faqat harf, bo‘g‘in yoki so‘zga qaratishni taqozo etadi; - fiziologik jarayon – o‘rgatilayotgan harf yoki so‘zni takrorlay olishni talab qiladi, o‘qiy olish layoqatining mavjud yoki mavjud emasligini anglatadi.

O‘qish yondosh nutq malakalari va til ko‘nikmalarini shakllantirish hamda nazorat qilish vositasi hamdir. Xususan:

o‘qish til o‘rganuvchilarga til va nutq materialini o‘zlashtirish jarayonini optimallashtirishga ko‘maklashadi;

leksika va grammatika, tinglab tushunish, yozish va og‘zaki nutqni nazorat qilishning kommunikativ yo‘nalishdagi topshiriqlarini o‘qish malakalariga ega bo‘lgandagina qo‘llash mumkin, ular yozma matnlar va yo‘riqnomalar asosida tuziladi;

barcha til va nutq ko‘nikma-malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga doir mashqlar ham matn va mashq-topshiriqlarga berilgan yozma yo‘riqnomalarga tayanadi. O‘qishning lug‘at boyligini oshirishdagi roli beqiyosdir.

O‘qib tushunish uchun matnlarni tanlash tamoyillari ta’lim mazmunini maqsadga muvofiqlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Bunda matn mazmuniga hamda matnning lisoniy jihatlariga bo‘lgan talablar farqlanadi. Matn mazmuniga quyidagi talablar qo‘yiladi:

1) matnlar til o‘rganayotganlar uchun qiziqarli hamda ularning yoshiga mos bo‘lishi;

2) matnlarda faqat til o‘rganayotganlarga ma’lum voqelik aks etgan bo‘lishi;

3) og‘zaki nutqni o‘stirishda samaraliroq hisoblanadigan sujetli matnlarga ko‘proq o‘rin ajratilishi. Matnning lisoniy jihatlariga ham bir qator talablar qo‘yiladi:

1) matnlar qat’iy ajratilgan lug‘aviy tarkib asosida tuzilishi va ta’limning dastlabki bosqichida ushbu lug‘atning 90-95 %ini, so‘nggi bosqichda esa 65-70 %ini tashkil qilishi kerak;

2) matnlarni tuzishda faqat so‘zlar miqdorini emas, ularning ma’nolarini ham hisobga olish zarur;

3) matnda mazmunini kontekstdan anglash mumkin bo‘lgan notanish so‘zlar bo‘lishi kerak;

4) intensiv o‘qish (tahlil qilish bilan) uchun matnlarga yangi material, ekstensiv o‘qish (uyda o‘qish) uchun matnlarga esa faqat o‘rganilgan material kiritilishi mumkin, bunda uyda o‘qish uchun matnlar intensiv matnlardan osonroq bo‘lishi kerak.

O‘qish texnikasiga oid malakalar dastlabki, kirish-fonetika kursida shakllantirila boshlaydi. Bunday malakalarni hosil qilishga qaratilgan mashqlar qiyinlashib boradigan elementlar – harflar, harf birikmalari, so‘zlar, gaplar, mikromatnlarni talaffuz qilish asosida quriladi.

O‘qish tezligi – bu bosqichning muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi: tez o‘qishga ilk bosqichdanoq erishish mumkin. Til materialini tushunish bilan bog‘liq malakalar bir qator oraliq malakalardan tashkil topadi.

1. Leksik birliklarni tushunish malakasi (so‘zning boshlang‘ich shaklini aniqlashga qaratilgan mashqlar).

2. So‘z birikmalari va gaplarni tushunish malakasi (so‘zlardan so‘z birikmalari hosil qilish, gaplar tuzish).

3. O‘qish davomida asosiy va ikkinchi darajali axborotni ajratish malakasi (gaplarni qisqartirish va kengaytirish, tayanch so‘zlarni aniqlash va b.). Matn mazmunini tushunish bilan bog‘liq malakalar gaplar va xatboshi (abzats)lar orasidagi ma’noviy munosabatlarni topish bilan shakllanadi. Bunday mashqlarning asosiy vazifasi matnning ma'no jihatdan yaxlitligini anglashga yordam berishdan iborat. Matnni o‘qishda uning alohida elementlari (tayanch nuqtalari, ma'no jihatidan ahamiyatli bosqichlari)ni ajratish, ularni bir-biri bilan bog‘lash, yaxlitlash vazifasi qo‘yiladi. Matndagi axborotni tushunish malakasi nafaqat matn muallifining g‘oyasi, fikrlari, balki o‘qiyotgan odamning uni qanday qabul qilishiga ham bog‘liq. O‘qish, agarda uning shaxsiyatga doir mazmuni ega bo‘lsagina, muloqot vositasi bo‘la oladi. Shu tariqa, matnni tushunish, bir tomondan, muallifning maqsadi va niyatini

tushunish, boshqa tomondan esa matnni o‘qishga bo‘lgan shaxsiy motivatsiyasini qoniqtirish bilan bog‘liq. Shuni ta’kidlash kerakki, matndagi axborotni anglash uni o‘qib tugatgandan keyin emas, o‘qish davomida axborotni qabul qilish jarayonida yuz beradi, shuning uchun uning mazmunini tushunish vazifasi matnni o‘qishdan oldin qo‘yiladi.

Xulosa

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qib tushunish kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O‘qib tushunish nafaqat matn mazmunini anglash, balki undagi axborotni tahlil qilish, xulosa chiqarish, baholash va hayotiy vaziyatlarda qo‘llash kabi ko‘nikmalarni ham o‘z ichiga oladi. Shu sababli o‘qib tushunishni rivojlantirishga yo‘naltirilgan maqsadli metodik ishlar o‘quvchilarning funksional savodxonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro baholash dasturlariga mos topshiriqlar o‘quvchilarning matn bilan ishlash, axborotni izlash, talqin qilish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. Vazirlar mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 2018-yil 8-dekabrdagi PF-134-soni// Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 8.12.2018-yil.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-sentyabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3931-sonli Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.09.2018 y., 07/18/3931/1841-son.

3. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston NMIU, 2017. – 80 b.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y, 06/19/5712/3034-son.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-son Qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 06.04.2017 y., 14 (774)-son.

6. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o`quvchilarining o`qish savodxonligini baholash. Boshlang`ich sinf o`qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma. ‘Sharq’ nashriyot-matbaa Aksiyadorlik kompaniyasi. Toshkent – 2019.